

# TONG Yulduzi

№51 (66384)  
2002 yil  
16 dekabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

Bog'chamiz bilan xayrlashib, maktabga chiqayotgan kunlarimizning birida «Xayr bog'cha, salom maktab!» nomli bayram tadbiri o'tkazgandik. Kichik guruh bolalari, onalarimiz, buvilarimiz bilan to'la zalda mudira opamiz qirq nafar bolaning har birimizdan: «Katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan?» deb so'rab chiqdilar. Qiz bolalar, shifokor, o'qituvchi, bog'cha opa bo'laman deyishsa, aksariyat o'g'il bolalar, men haydovchi bo'lib, kattakon mashina haydayman, deb javob berishdi.

Navbat menga keldi. «Men desant bo'laman» dedim ovozimning boricha. Bolaligimda aytgan gaplarim yodimdan ham chiqib ketdi. O'rta maktabni tugallashimiz arafasida har birimizning oldimizda, «kim bo'lsam ekan?» degan savol ko'ndalang turardi. Ko'pchilik sinfdoshlarimning maqsadlari aniq edi. Men esa bir qarorga kelolmay garang edim. Bir kuni uyimizga Toshkent Oliy harbiy-texnik bilim yurtida tahsil oladigan amakimning o'g'li kirib keldi. Uning o'ziga yarashib turgan harbiy kiyimini ko'rib, yuragim allanechuk bo'lib ketdi. Harbiy kiyimlarini kiyib ko'rdim, menga ham juda yarashdi. Keyin bilim yurtidagi o'qish sharoitlari haqida so'rab-surishtirdim:

- Bilim yurtimizda puxta bilim olishimiz, jismonan baquvvat bo'lib kamol topishimiz, kompyuter saboqlarini o'rganishimiz, dam olishimiz, qo'yingchi, hamma shart-sharoitlar yaratilgan, dedi u. Jismoniy va harbiy tayyorgarliklarga katta ahamiyat beriladi. Bizda irodasi mustahkam o'g'il bolalar tahsil olishadi. Bilim yurtimizga o'qishga kirsang, yutqazmaysan, dedi u. Shu suhbatimiz sabab bo'ldi-yu aynan shu bilim yurtiga o'qishga kirishga ahd qildim. Qarorimdan otam ham juda xursand bo'ldilar. Onam esa

avvaliga, bag'rimda bo'lmas ekan, deya biroz qarshilik qildilar. Dadamning sa'y-harkatlari bilan ular ham ko'ndilar. «Hozircha

Men ham posbon bo'laman qolaverardim. Hozir esa barvaqt badantarbiya qilishga, muzdek suvd a yuvinishga odatlanib qolganman. Har bir kunim, har soatim rejali. Eng muhimi, vaqtning qadriga yetishni o'rgandim. Dangasagina o'g'illarining tartib-intizomli bo'lib qolganidan onam ham xursandlar. Yaqinda bilim yurtimizda katta tantana bo'ldi. Biz harbiy qasamyod qabul qildik. Bayramimiz bilan tabriklagani otalarimiz, do'stlarimiz kelishdi. Bilim yurtimizdagi shart-sharoitlarni, o'quv xonalarimiz, sport zalimiz, yotoqxonalarimizni o'z ko'zlarim bilan ko'rib, mamnun bo'lishdi. Ular uchun bezatilgan to'kin dasturxon atrofida konsert dasturlarini tomosha qilib, dam olishdi. Buni qarangi, bu bilim yurtiga kirma, deya maslahat bergan do'stlarimning o'zlarim ham bizga havas qilib, kelasi yili shu yerga o'qishga kirishni niyat qilib qo'yishdi. Xullas, shunaqa gaplar. Kelgusida qanday kasb tanlashni bilolmay yurgan ukalarimga ham bizning bilim yurtimizga kelib o'qishlarini maslahat beraman.

## Men ham posbon bo'laman

Har bir kunim, har soatim rejali. Eng muhimi, vaqtning qadriga yetishni o'rgandim. Dangasagina o'g'illarining tartib-intizomli bo'lib qolganidan onam ham xursandlar.

Yaqinda bilim yurtimizda katta tantana bo'ldi. Biz harbiy qasamyod qabul qildik.

Bayramimiz bilan tabriklagani otalarimiz, do'stlarimiz kelishdi. Bilim yurtimizdagi shart-sharoitlarni, o'quv xonalarimiz, sport zalimiz, yotoqxonalarimizni o'z ko'zlarim bilan ko'rib, mamnun bo'lishdi. Ular uchun bezatilgan to'kin dasturxon atrofida konsert dasturlarini tomosha qilib, dam olishdi. Buni qarangi, bu bilim yurtiga kirma, deya maslahat bergan do'stlarimning o'zlarim ham bizga havas qilib, kelasi yili shu yerga o'qishga kirishni niyat qilib qo'yishdi. Xullas, shunaqa gaplar. Kelgusida qanday kasb tanlashni bilolmay yurgan ukalarimga ham bizning bilim yurtimizga kelib o'qishlarini maslahat beraman.

## Toshkent Oliy harbiy-texnik bilim yurti kursanti

Azamat JALILOVning gaplarini Feruza oqqa ko'chirdi.

...QASAMYOD QILAMAN!



qiziqyapsan. Hali harbiy kiyim kiyib, bir-ikki deb yuraverish joningga ham tegib ketadi», deya fikrimdan qaytarmoqchi bo'lgan do'stlarim ham bo'ldi. Lekin men orqaga chekinmadim. Hech ikkilanmay hujjatlarimni shu bilim yurtiga topshirdim. Omadim chopib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdim. Hozirgi kunda ham o'qib, ham yigitlik burchimni ado etib yuribman. Avvallari ertalab uyqudan ko'zimni ochgim kelmasdi. Salga betob bo'lib

ham bizga havas qilib, kelasi yili shu yerga o'qishga kirishni niyat qilib qo'yishdi. Xullas, shunaqa gaplar. Kelgusida qanday kasb tanlashni bilolmay yurgan ukalarimga ham bizning bilim yurtimizga kelib o'qishlarini maslahat beraman.

## MILLIY ISTIQLOL O'YASI ASOSY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda). Xalq farovonligi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi — xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya'ni islohot — islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab yetishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, yerga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farovon turmush asosi — erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdir.

Shuning uchun xalqimizda mulkka egalik hissini tarbiyalash, xo'jalik yuritishning zamonauiy usullarini o'zlashtirish, o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy mafkuramiz vazifalariga kiradi.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy zaminidir.

O'zbekiston xalqidek mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan xalq o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat e'tibori bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

(Davomi bor.)

## YANGI YIL - QANDAY YIL?



Bizning Turg'un Umarov, nomli mahallamiz tumandagi obod mahallalar sirasiga kiradi. Bunda bizning ham hissamiz bor albatta. Buvijonu onalarimizning nasihatlariga quloq solib,

har birimiz o'z uyimiz atrofini sarishta-saqlashga harakat qilamiz, supurib-sidirib qo'yamiz. Uning ko'rkamligiga ko'pchilik havas qiladi va biz bundan juda faxrlanamiz. Kirib kelayotgan yangi yilimizning



yurtboshimiz tomonidan «Obod mahalla yili» deb e'lon qilingani nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Shahrimiz ko'rki bo'lmish mahallalarimizning yanada ko'rkam, obod bo'lganiga nima

yetsin?! Ular fayzli bo'lib, xonadonlar tinchtotuv yashasalar, demakki, O'zbekistonimiz yanada obod bo'ladi. Shunday ekan, bu xayrli ishga biz yoshlar ham o'z hissamizni qo'shaylik.

Feruza AHMEDOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 7 - umumta'lim maktabining 10 - sinf o'quvchisi.



## YANADA MAZMUNLI O'TADI



Sinfboshimiz Naima ustozimizning o'ng qo'li, Doston esa uning yordamchisi. Biz ularni o'zimiz ishonib saylaganmiz. Sinfimiz ishonchi bo'lgan Naimani a'lochiligi, mehribonligi, kamtarligi uchun, tartib-intizomga, ommaviy ishlarga bosh-qosh bo'ladigan Dostonni esa tashabbuskorligi, faolligi uchun hurmat qilamiz.

Ularning tashabbusi bilan qadrdonimiz «Tong yulduzi»ga 70 foiz obuna bo'ldik. Endi shanba kunlari sinf rahbarimiz Ra'no opa Soliyeva boshchiligida bo'ladigan tarbiyaviy soatlarimiz yanada mazmunli o'tadigan bo'ldi.

**Sevara MIRZAYEVA,**  
Toshkent shahar, Yunus Obod tumanidagi  
239 - maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi.




«Tong yulduzi»  
gazetasiga



Sen bilan mazmunli har chog'im, d a v o m  
Zerikkan onlarda ovunchog'im, etayotgan  
Maslahatgo'yim, ham sirdoshim, a y n i  
Sen o'zingsan, «Tong yulduzim». kunlarda,  
Darhaqiqat, «Tong yulduzi» sinfimiz q a y s i  
o'quvchilarining eng sevimli gazetasidir. nashrga obuna bo'lishni o'ylab ham  
Uning rang-barang sahifalarini maroq o'tirmay, sinfimiz bilan «Tong  
bilan o'qiymiz, Prezident asarlarini yulduzi»ga yozildik. Endi o'tgan

## ESHIK QOQIB KELADI

o'rganamiz, boshqotirma-yu krossvordlarini yechib, aqlimizni charxlaymiz, munozaraga chorlovchi maqolalari yuzasidan bahslashamiz,



yildagidek bittagina gazetani qo'lma-qo'l qilib o'qimaymiz. Sevimli nashrimiz har birimizning uyimizga eshik qoqib keladi.

xullas, bo'sh vaqtimiz u bilan maroqli o'tadi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Respublikamizda chop etiladigan gazeta va jurnallarga obuna mavsumi qizg'in

**Nigora ESHIMOVA,**  
Toshkentdagi arab tiliga  
ixtisoslashgan 29 - maktabning  
8-sinf o'quvchisi.

## MUSIQA TA'LIMIDA YANGI YO'NALISH

Xabaringiz b o r d i r, O'zbekiston D a v l a t konservatoriyasi

qoshida ikkita maxsus musiqa akademik litseyi ish boshlayapti. Ulardan biri R.M.Glier nomidagi maktab-internati bazasida ochiladi. Maktab direktori Davlat Alimovning ma'lumotiga ko'ra, mazkur akademik litsey o'z oldiga o'quvchilarga Yevropa musiqasidan bilim berish bilan bir qatorda sharq, xususan, o'zbek milliy bastakorlik san'atidan beriladigan ta'limni chuqurlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Ilgarigi maktab-internat o'quv rejalaridan farqli tarzda akademik litseyda qator yangi bo'limlar ochish va yangi fanlar bo'yicha darslar kiritish rejalashtiriladi. Ilgarilari Yevropa musiqa san'atiga katta e'tibor berilganligi sababli maktab-internatning ko'plab o'quvchilari xalqaro tanlovlarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritib kelgan edilar. Iqtidorli o'quvchilarimizdan Sunnatilla Ibrohimov o'tgan yili nufuzli xalqaro tanlovda sovrinli o'rinni egalladi. Endi



milliy musiqa ta'limini ham har taraflama rivojlantirishga alohida

ahamiyat qaratiladi. Shu maqsadda litseyda milliy musiqa yo'nalishi bo'yicha alohida bo'lim ochiladi. Unga yuqori sinf o'quvchilaridan tanlab olinadi. Bo'limda o'zbek musiqasi va maqomlari haqida mukammal ta'lim berishi hamda o'zbek xalq cholg'u asboblari chaluvtchi iste'dodli mutaxassislar tayyorlashga

katta e'tibor beriladi. Shu bilan bir qatorda, akademik litseyda zamonaviy estrada san'ati bo'limi ham ish boshlaydi. Uning mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'zbek estrada san'atining yuzaga kelishi, rivoji va ijrochilik mahorati masalalariga qaratiladi. Bunday sa'y-harakatlar mamlakatimizda musiqa ta'limining har tomonlama ravnaqiga xizmat qilishi tayin.

**Zulfizar SODIQOVA,**  
Toshkent shahar, S.Rahimov  
tumanidagi 243 - maktabning  
9-«A» sinf o'quvchisi.

## "TONG YULDUZI"NING HISSASI

Men 2-sinfda o'qiyman. Sinf doshlarim va ustozim Zulxumor opa Ahmedova menga katta ishonch bildirib, sinfboshi qilib saylashgan. Sinfimiz juda inoq bolalar tartib-intizomli. Bunda «Tong yulduzi»ning hissasi katta. Chunki bo'sh



vaqtlarimizda ham to'polon qilmay, gazetadagi tengdoshlarimiz hayotiga oid maqola va xabarlarini o'qiymiz, ertak va

hikoyalarning mazmunini bir-birimizga so'zlab berishga harakat qilamiz, she'rlarni yod olib, n u t q i m i z n i o'stiramiz.

Bu yil ham o'ntadan bola pul to'plab, 4 oydan gazetaga obuna bo'ldik. Shunda, yil davomida sevimli gazetamizni o'qib boramiz.



**Ibrohim NARZIYEV,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 49 - maktab o'quvchisi.

Men Muzaffar Salomov Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani Bobur shirkat xo'jaligida yashayman. Nodira nomli 29-maktabda boshlang'ich ta'limni oldim.

Hozirda esa Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyida o'qiyapman.

Atrofdagi maktablarni ko'rganimdan so'ng, men uchun qadrdon bo'lib

qolgan 29-maktabim haqida yozishga qaror qildim. Maktabimiz juda kichkina edi. Shuning uchun yangi bino qurish ishlari boshlab yuborilgandi. Biroq... bino qurilishi to'xtab qoldi.

Maktab uch smenalik. Qish kunlari sinf xonalari juda sovuq bo'lardi. Shu sababdan ko'pchilik o'quvchilar darslarga qatnasholmasdi. Maktabga kelganlar ham bir, ikki soatdan so'ng uylariga qaytib ketishga majbur bo'lishardi.

Mana oradan bir necha yillar o'tdi. Ammo bu hol haligacha davom etyapti. Zora, ushbu maktubimdan so'ng, tuman, viloyat mutasaddilari tegishli xulosa chiqarsalar.

**Muzaffar SALOMOV.**

Kattalar,  
e'tibor  
bering!



Men Zomin

tumani, Jarqishloq qishlog'ida yashayman. Qishlog'imizda gaz yo'q. Jarqishloq'imiz ayollari qish kunlarida gazning yo'qligidan juda qiynalishadi.

Ayni qish kunlari bu masala bosh muammomiz

## QACHON GAZ KELARKIN?

bo'ladi. Shundoqqina qo'shni qishlog'imiz gazlashtirilgan. Ammo bizning qishlog'imizga gazning kelishidan darak yo'q.

Biz ham ko'plab tengdoshlarimiz qatorida issiqqina sinf xonalari dars tinglashni, uylarimizda barcha sharoitlar bo'lishini juda xohlaymiz.

**Jahongir JO'RAYEV,**  
Jizzax viloyati, Zomin  
tumanidagi 55- maktabning  
9- sinf o'quvchisi. .

## HAZILI QIMMATGA TUSHDI

Shavkat ismli bir bolani taniyman, badavlat oilaning erka farzandi. Ko'ngliga kelgan ishni qiladigan, janjalkash bola. Yomonning bir qilg'i ortiq, deganlaridek do'sti Aziz bilan paqillatadigan «o'yinchoq» sotib olishibdi. Uni oldilaridan behosdan o'tib qolgan jajjigina Ulug'bekning oyoqlari tagiga otib yuborishibdi. Qilgan o'rinsiz «hazillari» Ulug'bek uchun juda qimmatga tushdi. Zudlik bilan kasalxonaga keltirilgan bolakayni tekshirgan shifokorlar uning oyoqlari qattiq portlash natijasida jiddiy shikastlanganini aytishdi. Natijada norasida bir go'dak butun umrga nogiron bo'lib qoldi.

Bu ko'ngilsiz voqeani bejizga keltirmadim. Ko'chani boshiga ko'tarib, o'tkinchilarni behosdan qo'rqitib, o'zi huzur qilib yurgan sho'x bolakaylar ham o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishlarini istardim.

**Go'zal QOSIMJONOVA,**  
Toshkent shahridagi 116 - maktabning  
8-sinf o'quvchisi.



«Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori»

## SARALARNING SARASI

O'zbekiston Konstitutsiyasining o'n yilligi arafasida «Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovning yakunlovchi Respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda joylarda g'oliblikni qo'lga kiritgan bilimdon o'quvchilar ishtirok etdi.

Ko'rik-tanlov bahona 2,5 mln.dan ortiq maktab o'quvchilari baxtimiz qomusini madh etib, ijodiy bayonlar, insholar yozdilar. Shuningdek, 300 mingga yaqin tasviriy san'at ishlari, 100 mingga yaqin foto-albomlari bilan qatnashdilar. Shulardan Respublika bosqichiga 14 tadan insho, bayon, foto-albom va 500 dan ziyod yosh rassomlarning ijod namunalari taqdim etildi.

O'quvchilarning ijodiy ishlarini Respublikamizdagi taniqli olimlar, rassomlar, foto muxbirlar, pedagoglardan iborat hakamlar hay'ati ko'rib chiqdi. Nihoyat, saralarning sarasi aniqlandi.

Eng yaxshi bayonlar va insholar yozgan o'quvchilar ham aniqlandi.

Ayniqsa, Konstitutsiyamizning modda va bandlarini tasviriy vositalar orqali mahorat bilan tasvirlagan o'quvchilarning ishlari ham yuqori baholandi.

Gazetamizning o'tgan sonlarida poytaxtimizdagi 282- maktab o'quvchisi Saule Ziyenbayevaning yutuqlari haqida xabar bergan edik. Tengdoshingiz Saule Respublika bosqichida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, birinchi o'rin sohibasi bo'ldi.


Ikkinchi o'rin Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 1- maktabning 6-sinf o'quvchisi Boburjon Saidbekovga nasib etdi.

Sahifani bezashda ham Boburjon chizgan rasmlardan foydalandik. Uning chizgilariga o'zingiz baho bering.

Bundan tashqari, huquqiy mavzuda tayyorlangan eng sermavzun albomlar uchun ham ayrim maktablarga rag'batlantiruvchi mukofotlar topshirildi. Ko'rik-tanlov g'oliblari esdalik

sovg'alari, maqto'v yorliqlari va diplomlari bilan taqdirlandilar.


Ushbu tadbir orqali o'quvchilarning



shahridagi Abay nomli 22- maktab ikkinchi o'ringa, Buxoro viloyati, To'qimachilik tumanidagi 35- maktab hamda Samarqand viloyati, Temiryo'l tumanidagi 64- m a k t a b n i uchinchi o'ringa munosib deb topildi.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati,

Shahrisabz tumanidagi 4-iqtidorli maktab, Namangan viloyati, Norin tumanidagi 40 - umumiy ta'lim maktabi, Andijon viloyati, Paxtaobod tumanidagi 1 - umumiy o'rta ta'lim maktablarida huquqiy ta'lim va Konstitutsiyamizni chuqur o'rganish yuqori saviyada yo'lga qo'yilgani alohida aytib o'tildi.



Konstitutsiyamizning mazmun va mohiyatini o'quvchilar ongiga puxta singdirishga harakat qilgan, huquqshunoslik kabinetlarini namunali jihozlab, shu fan bo'yicha maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni a'lo darajada tashkil etgan maktablarga alohida e'tibor berildi.

Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 22- iqtidorli bolalar maktabi birinchi o'ringa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus

huquqiy bilimlari yanada charhlendi. **Feruza ODILOVA.**

## SHAKARNING ERITMASI NE BO'LADI ASHIRVOY?

Bizning sinfda ham Konstitutsiyamizning 10 yilligini katta bayram qilib kutib oldik. Bosh qomusimizning har bir moddalarini chuqur o'rganib, tushuntirib berdik.

Sinf doshlarim - Sunnat va Muxtorlar tomonidan ijro etilgan kichik sahna ko'rinishi barchaga birdek yoqdi.

Maftuna, Xolida va Shahnozalarning raqslari ham davraga yanada quvnoqlik olib kirdi. Ayniqsa, Ulug'bek va Suhroblarning hazil qo'shiqlaridan barcha o'quvchilar o'zlariga kerakli xulosani chiqardilar.

Siz ham ularning qo'shiqlarini bir o'qib ko'ring-a:

**Matematika darsida:**

- Mashqni to'g'ri ishlabsan,

O'zing yozdingmi, G'iyos?

- Ha, o'zim yozdim, dadam

Aytib turdilar xolos.

**Ximiyada:**

-Shakarning eritmasi

Ne bo'ladi Ashirvoy?

-Shuni ham bilmaysizmi,

Bo'ladi-da shakar choy.

**Rasm darsida:**

-Nega bu sichqon dumin,

Chizmay qo'yding Mirjalol?

-Mushuk hujum qilganda

Qochib qolsin bemaol.

Sinf doshlarimning hazil she'rlaridan so'ng davrani Sunnat, Aziza, Sanobar, Gavhar



ismli o'quvchilar egalladi. Ular chiroyli she'rlar aytishdi.

Tadbirimiz juda qiziqarli o'tdi. Bu

haqda hatto bizni tomosha qilib o'tirgan maktab o'qituvchilari ham aytib o'tishdi.

Mana shunday mazmunli bayram tadbirini o'tkazishda, albatta sinf rahbarimiz, matematika o'qituvchimiz E'tibor opa Siddiqovanning hizmatlari katta bo'ldi. Ulardan juda xursandmiz.

**Alisher ABDULLAJONOV,**  
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206- maktabning 5- sinf o'quvchisi.



## «QOMUSIMIZ BAXTIMIZ POYDEVORI»

Ana shu mavzuda bizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi qo'shimcha ta'lim majmuasida ham tadbir bo'lib o'tdi. Unda huquqshunos olimlar, ta'lim xodimlari, maktablarning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, maktab sardorlari va yetakchilari hamda maktab o'quvchilari ishtirok etdi.

O'quvchilar Konstitutsiyamizning o'n yillik to'yiga bag'ishlab tayyorlagan devoriy gazetalari va albomlarini tayyorlab, kichik ko'rgazma tashkil qildilar.

Baxtimiz qomusiga bag'ishlab she'rlar yod oldilar. Kichik sahna ko'rinishi orqali qonunlarimizni yana bir bor eslatib o'tdilar.

Ayniqsa, huquqshunos olimlar bilan o'quvchilar orasida bo'lgan savol- javob tadbirining yanada jonli o'tishiga sabab bo'ldi. O'quvchilar o'zlarining barcha qiziqirgan savollariga javob oldilar. Bunday tadbirlarning tez- tez bo'lib turishi o'quvchilarning huquqiy savodxonliklarini yanada oshib borishiga hech shubha yo'q.

**SH.ASRANOVA.**

## Maktabim - seni maqtagum

Toshkent shahrining Shayxontohur tumani markazida joylashgan Qo'chqor Turdiyev nomli 59 - maktab haqida juda ko'p iliq gaplar eshitgandik. Uni «Do'stlik maktabi» ham deyishadi. Maktab hayoti, uning tarixi bilan yaqindan tanishish maqsadida mazkur bilim dargohi tomon yo'l oldik.

1936 yili bir boyning uyida ochilgan bu maktabning tashkil qilinganiga

ham yarim asrdan oshibdi.

1938 yilga kelib u Qoratosh ko'chasidagi yangi binoga ko'chirilibdi. Dastlab faqat qizlar o'qiydigan bu maktabga 1952 yildan boshlab o'g'il bolalar ham qatnay boshlaganlar. O'sha paytlarda maktabni 45-55 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lsa, deyarli hammalari oliy o'quv yurtlarida tahsil olib, endilikda turli kasb egalari bo'lib, xalqimiz xizmatida yurishibdi. Olimlaru fozillari, fan nomzodlari, rahbarlik lavozimlarida ishlab kelayotganlari ham anchagina.

o'qituvchi Zulfiya Nabixonova, rus tili o'qituvchisi Zulfira Ochilova, Charosxon Sharipovalarning o'zlari ham shu muqaddas dargohda tahsil olishganidan faxrlanib yurishadi. Maktab direktori Faxriddin aka Shamsiyevning o'zlari ham shu maktab bitiruvchisi ekanlar. Ularning Dilnoza Sharipova,

o'rinbosari, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi Melixon Sharipova nazorat qilib boradi.

Bizning kasbimizda har bir bolaning ruhiyati bilish, uning ko'ngliga yo'l topa olish juda muhim. Shu

etishyapti. Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkura asoslarini o'rgana borib, «Prezident asarlarini o'rganamiz» degan mavzuda sinflararo ko'rik-tanlovlar o'tkazishyapti. Xitoy va koreys tillaridagi «Til bilgan - el biladi» ko'rik-tanlovlari ayniqsa, qiziqarli o'tadi.

Maqsadimiz - kelajagi buyuk

## DO'STLIK MAKTABI

R u s t a m

Rizayev kabi o'nlab shogirdlari

Pekinda o'qishni davom ettirishyapti.

- Maktabimiz Jahon tillari Universiteti va Sharqshunoslik oliygohi bilan ham yaqinda aloqada, - deydi maktab direktori Faxriddin aka biz bilan suhbatda. - O'zbekistondagi Xitoy Xalq Respublikasi elchixonasi ochilgandan buyon maktabimizga g'amho'rlik qilib keladi. Ular bizga xitoy tilidagi badiiy adabiyotlar sovg'a qilishdi. 1994 yili maktabimizda Xitoy madaniyati muzeyi ochildi. Muntazam faoliyat ko'rsatayotgan 22 ta fan to'garaklari doimo o'quvchilar bilan



Hozirgi kunda xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan mazkur maktabda dars berib kelayotgan Naimaxon Xaydarova, Zarifa Pirmuhammedova, ona tili

gavjum. Raqs to'garagi rahbari Nargiza Rahimboyevadan raqqosalikka ishtiyokmand qizlar saboq olishadi. Bu to'garaklar faoliyatini esa ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor

o'rinda Mahmud Qoshg'ariyning risolalaridan birida yozilgan quyidagi fikrlarini keltirmoqchiman: «Men a'zolar kasalligini davolashdan avval odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming, yuz minglarcha odamlar halok bo'ladi». Shuning uchun ham maktabimizda ruhshunos faoliyatini yo'lga qo'yganmiz. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga ruhshunosdan javob oladilar, hech kimga ayta olmagan muammolarini ham u bilan o'rtoqlashadilar. Samarasi esa biz kutgandan ham yaxshiroq bo'lyapti. O'quvchilarimiz bilimga chanqoq. Tadbirlar va tantanalarda faol ishtirok

mustaqil davlatimizga munosib har tomonlama yetuk, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarovchi, sog'lom va barkamol o'g'il-qizlarni tarbiyalash...

Maqsadlari faqat ezgulik bo'lgan ustozlarga xayrli ishlarida muvaffaqiyatlar tilab, xayrlashdik. Bunday fidoiy ustozlar ta'lim-tarbiya berayotgan mazkur dargohdan yana ko'plab ajoyib insonlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

*Nargiza AKBAR qizi,  
Toshkentdagi 249 - maktab  
o'quvchisi,  
Yulduzxon  
QAYUMXO'JAYEVA,  
O'z.D.J.T.U xalqaro jurnalistika  
fakulteti talabasi.  
Suratlarda: Maktab hayotidan  
lavhalar.*

## BOLALIK UY BOZOR



Rahmonberdi aka bu yil 63 yoshga kirgani uchun insonlar qalbiga yaxshilik urug'ini sochib,

45 yildan buyon

shifokor degan sharaflilarni e'zozlab kelmoqda. «Travmatologiya ilmiy tekshirish instituti»ning bolalar travmatologiya bo'lim boshlig'i, ustoz, professor Rahmonberdi aka Hojiyev bilan dildan suhbatlashdik:

-Men tibbiyot faniga bolalikdan havas qilar edim. Bir kuni o'rtog'im bilan ko'chada o'ynab yurganimda, u qo'qqisidan yiqilib tushib, oyog'i sinib qoldi. Shunda do'stimni qo'limda ko'tarib, shifoxonaga olib borganman. Shu-shu bo'ldiyu xayolimdan shifokor bo'lishdek orzu charx uraverdi.

O'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, hujjatlarimni Toshkent Davlat tibbiyot institutiga topshirdim. O'qishni tugatib, yana fan nomzodi, fan doktori bo'lish uchun izlandim, qat'iy ishladim. Professorlik nomzodigacha mening yordamimda mustaqil

O'zbekistonimizga beshta fan nomzodlari qo'shildi. Hozirgi paytda ularning soni yigirmadan oshib ketdi. Ana shu xizmatlarimni o'ylab, marhum ustozim Odil Sharipovich Shokirov ko'z oldimda gavdalanadi. Ularning maslahatlari, yo'l-yo'riqlari bilan shunday darajaga yetganimga Ollohga shukrlar qilaman. Ustozim o'zimizning mo'miyoi asilni tibbiyotda keng qo'llanilishini tasdiqlab ketgan aziz insonlardan biridir...

O'n sakkiz yil kattalar travmatologiya bo'limida ishlagan Rahmonberdi akaning tashabbusi bilan 1987 yildan boshlab travmatologiya institutida bolalar bo'limi

ish boshladi. Mening o'z ish uslubim bor: ya'ni qo'l-oyoq singanda gipssiz davolash, - deydi Rahmonberdi aka. Natijada bemor 7-8 kun oldin tuzaladi. Chunki gips qo'l yoki oyoqni terlatadi, havo o'tkazmay, jarohatning bitishini qiyinlashtiradi. Men bolalarni juda yaxshi ko'raman va bolali uy bozor degan naqlni qayta-qayta takrorlagim keladi. Oynai jahonda «Yashil chiroq» ko'rsatuvi bo'lsa, quvonib ketaman. Chunki bu ko'rsatuv orqali bolalar avtohalokati ancha kamaydi-da!

*Tuhfaniso ORTIQBOY qizi  
suhbatlashdi.*

# ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

*Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi*

*(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)*

Bir kuni g'alati voqea bo'lgani haqida hikoya qilishardi. Korolyov bir muhandis yigitni qattiq urishib bergach,

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.**

*Abu Shukur Balxiy*

«Bo'ldi siz ishdan bo'shadingiz» deganda, burilib ketavergan. Bosh konstruktorning jizzaki fe'l-atvoriga ko'nikib qolgan yigit bamaylixotirlik bilan ishini davom ettiravergan. Kundalik yumushlar bilan bo'lib, bu voqeani Korolyov ham unutib yuborgan. Kechga tomon aylanib kelib yana o'sha muhandisga ro'baro bo'lgan bosh konstruktor:

-Bu ishni nega bunday qilmayapsiz? Mana bunday qilish kerak-deb ko'rsatma beradi. Shunda yigit Korolyovga tik qarab:

-Menga buyruq qilishga haqqingiz yo'q, chunki sizning xodimingiz emasman. Meni ertalab ishdan bo'shatgan edingiz-deb javob qiladi.

Kimsan bosh konstruktorga biron shunday muomala qilishi mumkin emasligidan hamma qotib qoladi. Korolyovning o'zi ham gap topolmay hayronu lol edi. Lekin birinchi bo'lib o'zi ho-holab kulib yuboradi va shu bilan vaziyat yumshab ketadi.

Yana aytishlaricha, u xushmuomala, nazokatli, mehribon ham bo'la olardi. Asabiy holatlarda bitta latifa aytib hammani kuldirar, shoirlardan she'r o'qib, taranglikni yo'qotardi. Korolyov orzu qilishni sevardi.

K. P. Fkoktistov u haqda shunday xotirlaydi:

- Bir narsaga qiziqsa, nihoyatda berilib ketadigan odam edi. Bir necha yil muqaddam insonning fazoga pavvozidan avval bir guruh yosh olimlar ishdan bo'sh paytda «Mirrix safari» loyihasini ishlab chiqishgandi. Bu ilm-fandan ham ko'ra ko'proq o'yin ekanligini «Mirrix safari» bu o'n yillikning ishi emasligini hammadan ham Korolyov yaxshi tushunardi albatta, biroq shunga qaramay bu g'oyaga butun borlig'i bilan berilib ketgan, bu o'yindan olis kelajakning vazifasi bo'lsa ham bu maroqli muammo ustida bosh qotirishi imkoniyatidan bag'oyat quvonar edi.

Korolyov har xil voqealarni o'ylab topishga va huddi afsonadek hikoya qilib berishga mohir edi. Viktor Gyugoning «Bizga eng ko'pi o'xshaydigan narsa o'y-xayollarimizdadir» degan so'zlarini Sergey Savlovich bilarmidi?

Bosh konstruktorning ijodiy faoliyatida dastlabki qarashda ziddiyatdek ko'rinishi bir jihati bo'lgan. U bilan birga ishtagan ko'plab mutaxassislarning aytishicha, Korolyov konstruksiyalarni saqlash, maromiga



yetkazishni yoqtirmas, bu ishni boshqalarga topshirib, o'zi biror yangiroq, murakkabroq ish bilan shug'ullanishga oshiqardi.

Ikkinchi tomondan, barcha konstruksiyalarning ishonchliligi masalasi uni doimo qiziqtirar, tashvishlantirar edi. Yoshlik paytida «Qizil yulduz» nomli planyor qurilganida ko'pchilik qurilmani nihoyatda og'ir deb topgan. Holbuki bu kamchilik emas, balki pishiq-puxta o'ylangan yechim edi.

Figurali parvozlar uchun mo'ljallangan planyor har qanday holatlar uchun nihoyatda mustahkam bo'lishi kerak,-deb yozgan edi yosh Korolyov. Shundagina u parvoz payti vujudga keladigan yuklanishlarni amalda o'lchashga va oddiy turdagi planyorda o'tkazish mumkin bo'lmagan barcha kuzatishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Xo'sh, dastlabki raketalarda Korolyovga nima yetmagan edi? Barqaror ishlovchi «raketa motori» unga raketoplan uchun kerak edi. Urushdan keyingi yillarda ham shunday bo'ldi. SSSR fanlar akademiyasining muxbir a'zosi B. Ye.Chertok shunday xotiralaydi:

Raketa texnikasi dastlabki qadamlarni tashlayotgan paytlar, tahminan 50 yillar boshlanganiga qadar «Soddalik-ishonchlilik garovi» degan shiorga amal qilardi. Keyinchalik undan voz kechishga to'g'ri keldi. Chunki elektron jihozlarning murakkabligi zaruratga aylangandi. Korolyov odatdagi bu ishlardan birinchi bo'lib voz kechganlardan edi. Raketa bortidagi asbob-uskunalarining murakkabligidan shikoyat qilganlarga qarata u: «Murakkablikdan qo'rqmang, bu muqarrar narsa. Murakkab tizimlar bilan ishlarni ularning ishonchliligini oshirishni o'rganing» deb javob qilardi.

O'limidan bir yilcha oldin xotini Nina Ivanovnaga yo'llagan maktublaridan birida Sergey Pavlovich «Biz hamma ishni shoshmasdan, pishiq-puxta qilishga urinyapmiz. Asosiy ishlarimiz odamlarni

asrash» deb yozgan.

Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi juda sodda ekan. U texnik hujjatlarda ham oddiy yo'ldosh deb atalgan. Konstruksiyaning oddiyligi dasturning oddiyligidan kelib chiqqan. Yer atrofidagi orbitaga chiqarish, yaqin atrofdagi fizik tabiyati to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni beruvchi troektoriya o'lchovlari uchun bunday murakkabroq konstruksiya talab qilinmasdi ham.

Biroq, ayni paytda dastlabki yo'ldosh nihoyatda ishonchli qurilma edi. U orbitada bo'lgan vaqtda - 92 kun mobaynida o'zining kamtarona dasturini to'liq bajaradi. Ishonchlilik mezoni qo'yilgan vazifaga bevosita bog'liq edi. Agar bu aloqadorlik Korolyovga ma'qul tushsa, u shu o'rinda nuqta qo'yib, qurilmani yaxshilash va yanada takomillashtirishni boshqalarda havola qilar, lekin ko'pincha buni zarur deb topmasdi. Zotan navbatdagi yangi vazifa barcha ko'rsatkichlarning mutlaqo boshqacha tizimini talab qilardi-da.

Oldinga intilishga qanchalik urinmasin, qo'yilgan vazifalarni qanchalik tezroq bajarishga oshiqmasin, Korolyov konstruksiyalarni ishonchliligini doimo birinchi o'ringa qo'yardi. Har qanchalik shoshilinch vazifa, o'zining istak-xohishi yoki o'zgalarning talabi uni tanlangan ilmiy-texnik prinsiplarning chekinishga unday olmasdi. Korolyovning hayoti faqat ishdan iborat ekanligini e'tiborga olsak, ular hayotiy, insoniy prinsiplar bo'lib chiqadi. Zotan uning uchun hayotda ishdan boshqa hech qanday narsa yo'q edi.

Korolyov na ovga, na karta o'yiniga qiziqardi. Unga sovg'a qilingan qo'shotar miltiq devorga osig'lig'icha qolib ketdi. U dam olishni bilmasdi, bunga uquvi ham yo'q edi. Dam olish kuni ko'p uxlar, uyg'onib gazeta-jurnal, kitob o'qib o'tirgach, yana mizg'ib ketaverardi. Shunday ekaniga hamkasblari qiyinchilik bilan ishonishar, chunki ish kunlari

olimning g'ayrat-shijoati oshib-toshib yurardi-da. Kiyim-kechakka loqayd, yangi libosni yoqtirmas, galstuksiz kiyiladigan rangli va mayin ko'ylaklarni

**Buyuk kishilar olmos yanglig'  
noyob va shu qadar serjilodir.**  
*Sharq naqli*

yaxshi ko'rardi. Pulni bemalol sarflar, qarzga berib turar, qiynalayotgan odamni ko'rsa butunlay berib yuborardi. Korolyov ayyor odam, ammo aldamchi emasdi. Qattiqqo'l, lekin ishni ko'zini bilardi. Uning uchun hayotda eng muhimi g'oya edi. O'sha paytlarda katta yoshli zamondoshlardan kimga ko'proq qiziqasiz degan savolga bir fizik talaba shunday javob bergan:

G'oyasi bir va uni amalga oshirishga qodir odamlar meni hamisha qiziqtiradi. Yaqinda ko'pchilik yirik konstruktor akademik haqida eshitdik. U haqda bilganlarimga ko'ra u men uchun namunaviy insonga aylandi. Kelajak odamlari Korolyovga o'xshagan bo'lish kerak deb hisoblayman.

Hammaga ma'lum kinolavhalarda aylana stul yonida o'tirgan Korolyov Gagarin bilan radio aloqa orqali gaplashayotgani tasvirlangan. U chindan ham Korolyov, u chindan ham Gagaringa parvoz oldidan aytgan so'zlarini aytayapti. Biroq bu lahzalar 12 aprelda emas, keyinroq olingan. O'sha tongda esa, Korolyovni bunkerda: afsuski, hech kim suratga olmagan, o'sha lahzalarda kinokameralarni shig'illatib va chiroqlarni yoqib uni chalg'itishlariga o'zi ham yo'l qo'ymagan bo'lardi.

Sergey Pavlovich komanda bunkerida qanday o'tirgani, nimalar deganini aynan tiklash endilikda qiyin.

O'sha daqiqalarda uning yonida bo'lgan sanoqli odamlar ham bosh konstruktorni ataylab kuzatishmagan, har biri o'z ishi bilan band edi. Ular kuzatadigan boshqa narsalar yetarli bo'lgan. Korolyov buyruqlar bermagan, vaqt bo'yicha tayyorgarlikni ham e'lon qilmagan.

Bu ishlarni Anatoliy Semyonovich Krilov bilan Bosh Konstruktorning sinovlar bo'yicha o'rinbosari Leonid Aleksandrovich Voskresenovskiy bajarishgan.

Korolyov shu yerda edi. U Gagarin bilan gaplashar va ayni paytda atrofda sodir bo'layotgan hodisalar, berilayotgan barcha buyruqlar, olinayotgan xabarlar, o'chib-yonib turgan tablo ko'rsatkichlari nazaridan o'tkazib borardi. Ana shu fazoviy lahzalarning cho'ng zalvorini butun borlig'i bilan his qilardi. Hamma ish avvaldan belgilanganidek, bir maromda, silliqqina borar edi. Va nihoyat elektr razryadlarining chirsiftashlari ichra Gagarinning «Qani, ketdik!», degan tarixiy so'zlari yangradi.

*(Tamom.)*



## 4-Bo'lim

IBN SHIFONING BEMORGA  
MUNOSABAT HAQIDAGI O'GITLARI

Tabib talabi	Yaxshilik xabar	Iroda - bardosh
Kasalning nafi.	Davo har safar.	Davo uchun bosh.
Ko'rgach kasalni	Doim tut esda:	Dard bilan kurash
Bergil tasalli.	Gap ko'p parhezda.	Mard bilan kurash.
Shirin o'ylash ham	Bo'lsa-da bardosh,	Aniqlangan dard
Dardingga malham.	Davo uchun shosh.	Tuzalmog'i shart.
Xastadan xabar	Xastadan yana -	
Olgin tong-sahar.	Qilmagin gina.	
Esla bu shartni:	Kelgan chog'da	
Yashirma dardni!	dard	
Bemorga himmat	O'zni tutgil mard.	Hasad kasali
Doriga qimmat.		Tuzalmas hali.
Kasalni boqish -	Kasal ko'rgan chog',	Jilmaydimi sal,
Savobli - oq ish.	Sinalar o'rtoq.	Tuzalar kasal.
Bemorga yomon	Yasama kasal	Surunkali dard
Gap aytma biron.	Etmami o'sal?	Eng shubhali dard.
G'animga darding	Kasallik va g'am	Qay bemor halol
Aytmaslik sharting.	Bir ikkovi ham.	Kelmaydi malol.
Chin umidvorlik	Og'ir dard - tuhmat,	O'ylab dori ich,
Farosat borlik.	Shifo - haqiqat.	O'lchab dori ich.
Goh achchiq dori	Umidni zinhor	Dard tarqaguncha
Tanning madori.	Uzmagil bemor!	Unutma uncha.
Ko'zni ham aya,	Shifo ignasin	Bemorning ko'ngli
So'zni ham aya.	Yo'qdir ginasi.	Bo'lmasin mungli.
	Og'riqni yengish	
	Mardlikka teng ish.	

Bo'lsang-chi gripp,  
O'tkazma yurib.Umidsiz kasal  
Tortadi o'sal.Dardning og'iri -  
U - tish og'rig'i.Ko'p dardga asos  
Shamollash xolos.

Bemorga tinchlik

Kechikma tishni -  
Davolatishni!Mo'rt tishni ombur  
Terishga majbur.Johilga qarang,  
Asabi tarang.Tilamoq sog'liq  
Asl o'rtoqlik.Qo'shiq doimo  
Bemorga davo.Ko'z bo'lsa tiyrak,  
Shifodan darak.Dorisiz tuzal,  
Bu ishing go'zal.Har bitta tajang  
Istar janjal - jang.Og'riganda jon  
Tordir keng jahon.O'zingga davo  
Izla doimo.Tinch bo'lsa quloq,  
Barcha a'zo sog'.

Bo'lsang gar betinch,

Davodir sevinch.

Ona sutidan  
Mehr oqar chindan.Yolg'izlik har gal  
Chaqirar kasal.Nimadan betob  
Bo'lganingni top.Xavfsirab yurish,  
Dardga dard qo'shish.Og'risang, onang -  
Doim parvonang.O'tkazmasdan payt  
Tabibga rost ayt.Pashshaday xira -  
Bo'lganmi sira?Kim qorin o'ylar,  
Kim qadri o'ylar.Bemorga rahming  
Bu tiniq fahming.Ezma-yu sergap  
Kemirar asab.O'tkir dori bor,  
U esa me'yor.Nolib erta-kech  
Tuzalganmi hech?Bemor istagi -  
Shifodir tagi.

## Po'lat MO'MIN

Tan og'risa sal  
Tatimas asal.Kasallik meros  
Bo'lmagani soz.Ko'zga doimo  
Ko'rkamlik davo.Kasal yuqtirish  
O'ta iflos ish.Dardga beparvo  
Bo'lish eng xato.Bemor ko'rgan choq  
O'tirma uzoq.Vaqtida uxlash  
Malhamga o'xshash.Ortsa harorat  
Darddan ishorat.Ko'ngling bo'lsin to'q.  
Davosiz dard yo'q.Ishonch bilan yur,  
Quvonch bilan yur.Gripp bo'lsa yot,  
Gripp bo'lar mot.

(Davomi bor.)

IBN SHIFO - ULASHAR DAVO  
(o'giltar)

Doridan kuchli.

Cheksang tong - sahar  
Yutasan zahar.Hadeb «voy-voy»lash -  
Yomonlik poylash.Ukoldan qo'rqish  
Dardga dard qo'shish.Gripp-chi qilday,  
Qoldig'i filday.Tamaki chekish  
Kasallik ekish.Jahlingni yengil,  
Tortasan yengil.Gar bo'lsang bemor,  
Bir tabibga bor.

Maktab davrida o'tgan kunlarimiz juda qadrli va unutilmas damlar ekanligini maktabdan uchirma bo'lib ketganimizdan so'nggina anglab yetamiz. Maktabdagi sho'xliklarimiz, qiziq- qiziq voqealar hecham yodimizdan chiqmaydi. Ularni qo'msaymiz, ustozlarimizni

## DOIMO YODIMDASIZ, USTOZ!

sog'inamiz. Ko'chalarda maktab o'quvchilarini ko'rsak, ularga havas-la boqib qolishimiz ham shundan.

Men Toshkent shahridagi A.Yassaviy nomli 203-maktabda tahsil olganman. Ustozlarimni, ayniqsa, kimyo fanidan saboq bergan aziz ustozim To'ychiyeva Melinisa opamlarni juda ko'p eslayman. Ular o'quvchilarga o'ta mehribonliklari, kezi kelganda, juda talabchan va qattiqqo'lliklari bilan boshqalardan ajralib turardilar. Bir kuni ustozimiz betob bo'lib qoldilar. Ularni hollaridan xabar olgani borganimizda, ko'zlarida yosh bilan, «asallarim, men albatta sog'ayib, sizlarga yana bilim berishga qaytib boraman», - degandilar. Afsuski, Melinisa opamizni biz o'shanda so'nggi marotaba ko'rishimiz ekan. Beshavqat o'lim ularni oramizdan bevaqt olib

k e t d i .  
Maktabimizda boshqa kimyo o'qituvchisi yo'q edi. O'sha vaqtda

yosh bo'lsak-da ustozimizdan ayrilganimizni, ularni endi hecham ko'rmasligimizni o'ylab,

## DOIMO YODIMDASIZ, USTOZ!

yum-yum yig'lagandik.

Ustozimiz hayotligida kimyo xonasiga kirsangiz, bahri dilingiz ochilar edi. U yerdagi ozodalik, sarishtalik, tuvakdagi gullarning muattar bo'yi ko'zni quvontirardi. Ko'rgazmali qurollarni aytmayisizmi, xuddi boshqa bir olamga tushib qolgandek xis qilardik o'zimizni. Odatda kimyo fanini ko'pchilik yoqtirmaydi. Ayniqsa, o'g'il bolalar. Bizning maktabda esa aksincha, eng sevimli fanimiz kimyo edi. Ustozimiz olamdan o'tgach men maktabni bitirgunimga qadar ular kabi talabchan, o'z kasbining bilimdoni bo'lgan va dildan saboq beruvchi o'qituvchini deyarli ko'rmadim. Xonalari ham huvillab qolgandi...

Melinisa opamlar oramizda yo'qlar, ammo ularning xotiralari har bir o'quvchilari qalbida mangu yashaydi.

Shahlo MUTALOVA.

«BOLALAR - CHEKISH,  
GIYOHVANDLIK VA SPIDGA  
QARSHI»

Poytaxtimizdagi 90-o'rta maktabda shu mavzuda bolalar rasmlari ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Ko'rik-tanlov ko'rgazmasidan tumanlar aro maktab o'quvchilari tomonidan ishlangan, inson umriga ziyon yetkazuvchi yomon odatlardan saqlanishga da'vat etuvchi rang tasvir asarlar joy olgan.


Ushbu tadbir «Bioekosan» Respublika yoshlarining o'quv-uslubiy majmuasi hamda Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmasi hamkorligida o'tkazildi. Maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarga zararli odatlar to'g'risida tushuncha berish maqsadida bo'lib o'tgan tadbirda tibbiyot fanlari dotsenti D.Teshaboyev, Biologiya fanlari nomzodi J.Sodiqov hamda Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasi, ma'naviyat-ma'rifat bo'limi yetakchi mutaxassisi Kim Getta Mixaylovnalar so'zga chiqdilar. Ular o'z nutqlarida bolalik va o'smirlilik inson hayotida muhim davr hisoblanishini, uni giyohvandlik va

spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi salbiy illatlarga berilmaslikni, aks holda bunday illatlar inson sog'lig'iga nafaqat zarar yetkazishi, hatto halokatga olib kelishi to'g'risida ham ta'kidlab o'tdilar.

Insonlarni, ayniqsa yoshlarni bunday zararli odatlarga o'rganib qolishga nima majbur qilmoqda? Buning bosh sabablaridan biri yoshlarni nazoratsiz qolishi bo'lsa, yana biri esa, o'smirlilik davridagi har bir narsaga qiziquvchanligidir, deya ta'kidlab o'tildi.

Tuman maktablaridan kelgan o'quvchilarning o'zlari faol qatnashdilar, o'z sahna chiqishlarini namoyish etdilar. Ko'rik tanlovda birinchi o'ringa S.Rahimov tumanidagi 326-maktab 9-sinf o'quvchisi Sarvar Zokirov, ikkinchi o'ringa M.Ulug'bek tumanidagi 223-maktab 9-sinf o'quvchisi Alisher Rasulov munosib topildi va «Bioekosan» maxsus diplomi bilan taqdirlandilar. Qolgan tanlov ishtirokchilariga ham esdalik sovg'alarini taqdim etdilar.

Ra'no PAYZULLAYEVA.



Assalomu alaykum sevimli gazetam «Tong yulduzi»! Biz uchun qiziqarli sahifalar chiqarib tolmayapsanmi? Sahifalaringda nafaqat bolalar, balki, umrlarini bolalikka bahshida qilayotgan kattalar haqida ham maqolalar chop etilayotganidan xursandmiz. Bugun men ham qo'limga qalam olib, ana shunday insonlardan biri, sevimli bastakorimiz Nadim Norxo'jayev haqida yozmoqchiman. Nadim aka boshlang'ich ta'limni Glier va Hamza nomidagi musiqa bilim yurtlarida oldi. Konservatoriyani tamomlagach, shahrimizdagi turli bilim yurtlarida saboq bera boshladi. Shuningdek, o'z ustida tinimsiz ishlab, bolalar qo'shiqlariga kuylar bastalay boshladi. Esimni tanibmanki, Nadim aka kuy bastalagan «Ola qanot hakalar», «Yaxshi bola», «Yomg'ir yog'aloq», «Salom qo'shiq!», «Do'ppi kiygan bolalar», «Gullar manim kulganim» kabi qo'shiqlarini hirgoyi qilib ulg'ayganman. Endilikda ana shu bastakor qo'lida tahsil olayotganimdan baxtiyorman. Bolajonlar tiliga mos, zamon bilan hamnafas bu qo'shiqlar O'zbekiston teleradiokompaniyasi

**BOLALIGIM**

Allegretto Nadim NORXO'JAYEV musiqasi  
Rauf TOLIB she'ri

Voice

Бо-ла - ли - гим кал-бинг ёз Бур-гут ка-би кил пар-воз

Ор-зу-ла-ринг ка-но-тинг Нур-га у-ра ха-ё-тинг

ша-мол ка-би уй - на, шoш. Дар-ё ка-би кай- на, тош. Кур-сат

гай-рат, шах-динг-ни Сен куз - куз-ла бах-тинг - ни

Bolaligim, qalbing yoz,  
Burgut kabi qil parvoz.  
Orzularing - qanoting,  
Nurga o'ra hayoting.  
**Naqorat:**  
Shamol kabi o'yna, shosh,  
Daryo kabi qayna, tosh.  
Ko'rsat g'ayrat, shahdingni,  
Sen ko'z-ko'zla baxtingni.

Qanday yorug' peshonang,  
Quyosh boshda parvonang.  
Yuragingda olov bor,  
Sho'xlingga olam tor.  
**Naqorat:**  
Sen bog'larda yurganda,  
Hatto g'uncha sharmanda.  
Sensan olam yoshligi,  
Sensan ko'klam yoshligi.  
**Naqorat:**

qoshidagi «Bulbulcha» ashula va raqs ansamblining repertuaridan ham munosib o'rin olgan. San'at olamiga endigina qadam qo'yayotgan Abzalxon Sodiqov, Firdavs Salohiddinovlar ham Nadim aka yaratgan qo'shiqlarni maromiga yetkazib kuylashyapti. Firdavs yaqinda Sirg'ali tumanida o'tkazilgan «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq tanlovida faxrli 1-o'rinni egalladi.

Nadim aka yaratgan har bir qo'shiqda o'zgacha jilva, jozibador bir sehr bor. Hozirgi kunda estrada cholg'u ijrochiligi kafedrasiga mudirlik qilib kelayotgan Nadim aka ning uzoq yillik samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo'lganlar. Istandimki, xalqimizning, ayniqsa, bolajonlarning sevimli bastakori Nadim aka Norxo'jayevning kuy va qo'shiqlari kichkintoylar tilidan tushmasin.

**Ra'no QOSIMOVA,**  
**O'zbekiston Davlat**  
**Konservatoriyasi 2 - kurs talabasi.**

**Eng baland tog'** Gavay orollaridagi Mauna Kea bo'lib chiqdi. Uning dengiz sathidan balandligi 4205 metr, suv ostida esa 4877 metr, umumiy balandligi 9100 metr ekan.

**Eng yengil va eng kichik** sayyora Pluton bo'lib, u Oydan ham kichik.

**Eng chuqur dengiz botiqligi** - Marian orollari yaqinidadir. Uning chuqurligi - 11022 m.

**Eng baland daraxt** Asoschi Daraxti deb ataladi. Uning bo'yi 110 metr.

**Eng uzun g'or** AQShning Kentukki shtatidagi Flint-Mamontovadir.

**Eng uzun chuvalchang** - uzunligi 15 metr bo'lgan lineusdir. U Yevropa sohilida yashaydi.

**Eng chuqur g'or** Fransiyadagi Jan-Bernar g'ori.

**Eng, eng, eng...**

**Eng chuqur okean** - Tinch okeani bo'lib, uning chuqurligi 4281 metr.

**Eng yorqin yulduz** Sirius bo'lib, u oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan eng kichik yulduzdan 1000 marotaba ortiqroq darajada yorqinroqdir.

**Eng katta ilon** - shoh pitondir, uning bo'yi 10 metr.

**Eng mashhur sharshara** - Niagara.

**Eng mayda gulli o'simlik** tomirsiz valfiya.

**Eng katta sharshara** - Anxel sharsharasidir.

**Muhayyo OCHILOVA,**  
**Toshkentdagi Odil Qayum nomli**  
**131 - maktab o'quvchisi.**

**Qatra**

**SUV**

Suv, sen tabiatning farzandisan. Tog'u toshlar, qiru adirlar uzra yugurib, yelib barchaga shodlik ulashasan. Shodlik va quvonch ulashib, charchoq nimaligini bilmaydigan beg'ubor bolalixsan. Sen tog' bag'ridan oqib tushayotganingda toshlar seni qitiqlab kuldirishadi, o't o'lanlar yuzingni silab erkalashadi, mayin shamol esa tunda senga alla aytadi. Ha, sen tabiatning erkagina farzandisan...

**Shahnoza PIRMATOVA,**  
**Nafis san'at litseyining**  
**«Suhandon» guruhi**  
**o'quvchisi.**

## "ALLOMA" BOSHQOTIRMASI

1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				

**Eslatma:** Ushbu boshqotirmadagi so'zlar «Y» harfi bilan tugaydi.

**Savollar:**

1. Navoiyning forsiy taxallusi.
2. Jaloliddin ...
3. O'z davrining «Malik-ul kalomi» nomini olgan shoir.
4. «Zullisonayn» nomini olgan, g'azal mulkingning sultoni.
5. X. Kolumbdan oldin Amerikani kashf etgan alloma.
6. «Sog'indim» she'ri muallifi, shoira va adiba.
7. «Zarbulmasal» muallifi.
8. XIV asr. Nasiriddin Burhoniddin ...


### «O'YLAB TOP...» KROSSVORDI

Fol	O'g'il bola ismi	Qaroqchilar boshlig'i	Men (sheva)	Tarelka	Ildiz	Daryo yo'li	Artur ... Doyl	Nomus
Asar	Futbol darvozasi	O'zbilarmonlik	Ulgurji	Davlat	Shans	Meva		



# Bizning to'garak

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'uloti topishmoqlarga bag'ishlandi. Chunki bu galgi mehmonimiz topishmoqlar bilag'oni Tohir aka Mullaboyev bo'ldilar. Uzoq yillardan buyon televideniyaning bolalar tahririyatida ishlab kelayotgan Tohir aka bolalikdagi orzulari, hayot va ijod yo'li haqida gapirib berdilar. To'garak a'zolari orasida topishmoq topishga, yozishga qiziquvchan bolalarning ko'pligidan quvonib, ularga



topishmoqlarga mavzu tanlash, ko'chma ma'nodagi so'zlardan mohirlik bilan foydalanish haqida maslahatlar berdilar.

Habaringiz bor, yaqinda Tohir akaning topishmoqlar to'plami bosmadan chiqdi. Bilag'on va topqir bolalar undagi topishmoqlarning javoblarini allaqachon topib bo'lishgandir. Shuning uchun ham ushbu sahifamizda e'tiboringizga Tohir akaning ana shu to'plamga kirmagan yangi topishmoqlaridan havola qilyapmiz. To'garagimiz a'zolari ulardan ayrimlarini bir zumda topib olishdi. Murakkabroqlarini esa topolmay, o'ylga

tolishdi.

## TOPISHMOQLAR

Rangi qora, yashildir,  
Barg, gulidan hosildir.  
Qaynoq suvga tushsa u,  
Yoziladi namlanib!  
Hushbo'y hidin taratib,  
Maza berar damlanib.  
Asta quyib uzatish,  
Xizmat qilih biz yoshdan.  
Yoshi ulug'larga u  
Uzatar bir boshdan.

Daraxtlar ichra asil,  
Guli popuk, yam-yashil.  
Hosil to'kar jiqqa moy,  
Vitaminga juda boy.  
Nima ekan bu o'rtoq?  
Topdim, topdim bu ...




Yer ustida yetilar,  
Rangi yam-yashil.  
Oshga qo'shib yeyilar,  
Nima bu Asil?

Yer bag'irlab o'sadi,  
Egri, bugri gavdasi.  
Daraxt. Qiziq gullamay,  
Hosil berar novdasi.  
Mevasi qora, sariq.  
Ichida g'ij-g'ij tariq.  
Totlidir uni yesang,  
Sut chiqar bargin uzsang.  
Nima ekan Jahongir?  
Topdim, topdim bu ...

(Anfir.)

Randasiz yasab ustun,  
Tegirmansiz uyar un.  
Igna, ipsiz yasar qop,  
Jondek aziz, o'ylab top?

Bol yig'ib nishda oh-oh,  
Mevasi kumush marjon,  
Totsangiz, rohatijon.  
Bargidan bo'lar shoyi,  
U bog'larning chiroyi.  
Pishganida chodir tut.  
Nima ekan bu Mahmud?  
Topdim, topdim, bu oq ...



Tohir MULLABOYEV



Palagida u gullab,  
Ildizda tugar hosil.  
Tarkibida ko'p oqsil,  
Nima ekan Mirvosil?



### SHAYXONTOHURIM

Vatanimning poytaxtida,  
Fayzli, ko'rkam tumandirsan.  
Qadim Shoshning bag'ridagi,  
Yashnab turgan chamandirsan.  
Aholimiz xushtakalluf,  
Sarishtadir ko'chalarim.  
Kunduzlari g'oyat gavjum,  
Charog'ondir kechalarim.  
Xonadonlar fayzi bo'lmish,  
Qariyalar izzatdadir.  
Bel bog'lashib o'g'il-qizlar,  
Keksalarga xizmatdadir.

Dilafruz Bonu USMONOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur  
tumanidagi 169 - maktabning  
6 - «B» sinf o'quvchisi.

### CHUMCHUQ

Sevar chumchuq bog'ini,  
Unda uchadi yayrab.  
O'z tilida maqtaydi,  
Bulbuldayin sho'x sayrab.  
Eh chumchuqjon, chumchuqjon,  
Buncha bog'ing suyasani?  
Qishin yozin tark etmay,  
Uni vatan tuyasan.

Azizaxon ABDULLAYEVA,  
Poytaxtdagi 254 - maktabning  
3-«A» sinf o'quvchisi.

### ZULFIYAXONIMGA

She'riyat bobida siz o'nak bizga,  
Ijodda men taqlid qilaman sizga.  
Duo qiling, iz bo'lay izingizga,  
Zulfiyaxon, sizga havas qilaman.  
Nazm gulshanida edingiz buyuk,  
Xalqimiz uchun qiz bo'ldingiz suyuq,  
Bo'lolsam qaniydi siz kabi yetuk,  
Zulfiyaxon, sizga havas qilaman.  
Qalbimda ilhomim g'uncha ochganda,  
Tunlari ko'zimdan uyqu qochganda,  
Navoiy yo'linga ziyo sochganda,  
Zulfiyaxon, sizga havas qilaman.

Zarina JO'RAYEVA,  
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi  
7 - o'rta maktab o'quvchisi.



Qorboboning sovg'asi kimga nasib qilarkin?  
Tengdoshingiz - «Orom» nomli bog'cha-maktabning  
4- «Ye» sinf o'quvchisi Shahzoda RIZAYEVA rasm-  
topishmog'ini shunday nomlabdi.

### CHAMAN YARATSAM

O'z yo'limga ega bo'lsam,  
O'xshab faqat o'zimga.  
O'z uslubim, o'z qalamim,  
O'zim aytar so'zimga.  
Chaman yaratsam deyman,  
She'riyat bo'stonida.  
Jo'shib oqqim keladi,  
She'riyatning qonida.  
She'rim bilan kelmadim,  
Ketmayin uning bilan.  
Kuzatib qolsa she'rim,  
Eng baxtiyor odamman.

Ozoda HAMROYEVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 40 - maktabning  
11 - «A» sinf o'quvchisi.

Ramazon kunlarining birida saharlik qilib  
o'tirardik. Buvam odatlariga ko'ra bir rivoyat  
so'zlab berdilar:  
«Qadimda ikki  
q o ' s h n i  
yashagan ekan.

Biri badavlat, ikkinchisi  
o'rtahol kun kechirisharkan.  
Badavlati ochko'zligi,  
o'rtaholi ochiqko'ngilligi bilan  
nom chiqargan ekanlar. Boy  
har yili ramazon oyida o'ziga  
o'xshagan badavlat kishilarni  
uyiga chaqirib, katta ziyofat  
berar, kambag'al qo'shnisi esa beva-  
bechoralarga iftorlik qilib berarkan. Boy  
kishi eshigiga ramazon aytib kelgan bolalarni  
ostonasiga ham yo'latmay, quvib solarkan.  
Kambag'al esa bolalarni uyiga olib kirib,  
o'zida borini ular bilan baham ko'rarkan.

Oradan yillar o'tib, boy ham, kambag'al  
ham olamdan o'tishibdi. Davlati bisyor,  
shoxona xonadonda yashagan xasis boyning

nomi unut bo'lib ketibdi. Kambag'al  
qo'shnisining nomi esa tildan tilga o'tibdi.

## SAXIY VA XASIS

(Rivoyat)



Chun ki  
uning uyiga  
ramazon  
aytib kelgan  
bolalar saxiyligi-yu  
ochiqko'ngilligini bolalariga,  
nabiralariga ham so'zlab  
berishibdi. Ro'zai ramazon  
kunlari uning xaqqiga duolar  
o'qishibdi.

Bobomning rivoyatlarini  
tinglar ekanman, o'zimcha xulosa  
chiqardim: Yomonlikning umri suvga  
chizilgan izdek bir lahzalik, yaxshilikning  
umri esa, toshga o'yilgan naqshdek  
boqiy ekan.

Dilshod G'OFUROV,  
Shayxontohur tumanidagi G'ofur  
G'ulom nomli maktabning  
7-«A» sinf o'quvchisi.

Ona yurtim - oltin beshing  
**TONG Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA  
AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset usulida  
bosildi.

Korxonada manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № T-1058  
Gazetani  
Ma'suda IRISNAZAROVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda TURSUNBOEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75